

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



I
BRENDING
N
O
V
MARKETING
T
BIZNES
I
Y
S
RAQAMLI MARKETING
V
D
ELEKTRON TIJORAT

№3-SON

2025-YIL, MART

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 670 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-martda ruxsat etildi

MUNDARIJA

OZIQ-OVQAT MAXSULOTLARI EKSPORTINI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH YO‘LLARI	9
Yunusov Baxodir Marisovich	
ENHANCING EXPORT STRATEGIES FOR LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES.....	22
Djurabaev Otabek Djurabayevich	
BALIQCHILIKDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBI VA ICHKI NAZORATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	29
Dusmurotov Radjabbay Davlatbayevich, Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI	37
Egamshukurov Zayniddin Sodikovich	
KORXONA MAHSULOTLARI ISTE‘MOLCHILARI MOTIVATSIYASIDA CHEKLI ALMASHTIRISH NORMASI MASALALARI	45
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA TURIZM INFRATUZILMASI ROLINI BAHOLASH.....	52
Jumaniyazova Sharifa Rashidovna	
DIGITAL MARKETING TOOLS AND BUSINESS DEVELOPMENT STRATEGIES	61
Khudoyarova Ziyoda Maratovna, Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBALARI.....	68
Mirazimova Zulfiya	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA IT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI.....	79
Musirmanov Shohboz Usmon o‘g‘li	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA FARAVONLIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI VA DINAMIKASI	86
Muxamedova Muslima Maxmudovna	
DEVELOPMENT STRATEGIES FOR GLOBAL COMPANIES IN CURRENT CONDITIONS.....	96
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....	104
Qurbonov Alisher Boboqulovich	

ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SHAROITIDA SUG'URTA KOMPANIYALARI UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI	110
Rashidova Dildora Rasul qizi	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH	116
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
TELEKOMMUNIKATSION VOSITALAR ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING INNOVASION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	122
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	130
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI	140
Urazbayev Raxmatjon Otajanovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI HAMDA EKOLOGIK, IJTIMOY VA BOSHQARUVNING INVESTITSİYALAR BILAN INTEGRATSIYASI	151
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROSANOAT MINTAQAVIY-IQTISODIY MAJMUASI RIVOJLANISH DINAMIKASINI BAHOLASH	161
Bekchanov Xalmurza Tursinbayevich	
“MAHALLA YETTILIGI” TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IJTIMOY AHAMIYATI	172
Imomov Jamshidxon Odilovich, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi, Islomova Dilrabo Salomovna	
CHAKANA SAVDODA MARKETING VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	194
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li	
RAQOBAT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	200
Nishanbaev Behzod Qahramaonjon o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
INFLYATSIYA VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR	210
Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI.....	218
Rajabova Mohichehra Abduxoligovna	

KICHIK BIZNESDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	227
Salayev Jasurbek Komilovich	
OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA KADRLARLAR TAYYORLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	237
Ahmedova Nigora Temur qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРИЗАЦИИ.....	248
Ахмедова Мадина Шухрат кизи	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ КЛИЕНТСКОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	258
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	267
Рахимова Тамила Баходур кизи	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	279
Ibodullaev Abror Axrorovich	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	285
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
KIMYO KORXONALARI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA MARKETING STRATEGIYALARINI TANLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI ISHLAB CHIQISH.....	295
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
PANDEMIYA VA INQIROZLARLARNING IJTIMOIIY SOHALARGA TA‘SIRINI BAXOLASH	304
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li	
QASHQARYO VILOYATINING IQTISODIY O‘SISHINI TA‘MINLASHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O‘ZLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	311
Azimov Allaberdi O‘rinovich, Begaliyeva Madina Abdusamatovna	
TIJORAT BANKLARI MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI	317
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li	
VARYING FORMS OF LEVERAGE ANALYSIS AND ITS USAGE	324
Abduqodirova Mohinur Anvar qizi	

ROLE OF INSTITUTIONAL FRAMEWORKS IN FACILITATING INDIAN INVESTMENT IN UZBEKISTAN.....	336
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
TRANSPORT TIZIMINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	344
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	357
Ergashxodjaeva Shaxnoza Jasurovna, Parpiyeva Gulhayo Ravshanbek qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI	366
Jumanov Ruslanbek Bobojonovich	
THE ROLE OF THE PROFESSION OF GUIDE INTERPRETERS IN TODAY'S WORLD	373
Yaxshibayeva Raziya Imanali qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AN'ANAVIY SANOATDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISHGA TA'SIRI.....	380
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Tyurahanov Shamsitdin Djamshid o'g'li	
AGROSANOAT MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY INFRATUZILMASINING ROLI VA O'RNI.....	389
Sultonov Sirojiddin Normurolovich	
THE ROLE OF THE STATE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN	396
Olimova Sevara Komil kizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI: DEHQONCHILIKDAGI NOANIQLIKLARNI VA TAVAKKALCHILIKLARNI BARTARAF ETISH	406
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Mo'minov Muslimbek Mirzoxid o'g'li	
DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN BASED ON INNOVATIVE ACTIVITIES.....	416
Mukumova Nargis Nuriddinovna, Nasirov Dilshod Farhadovich, Toshimov Ulugbek Hakimovich	
MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA IJTIMOY TARMOQLARNING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	424
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna	
ICHKI AUDITDA TAHLILY AMALLARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	435
Maxmudova Sharifa Elmurodovna	
THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF ADALINE NEURAL NETWORKS IN FINANCIAL DECISION-MAKING	445
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	

AHOLINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	454
Raximov Anvar Norimovich, Annayev Abbos Baxtiyor o‘g‘li	
ULGURJI SAVDO MARKETINGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	460
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
ELEKTR ENERGIYASI UCHUN TARIF REJALARINI LOYIHALASH	470
Samiyev Shohrux Faxriddin o‘g‘li	
TA‘LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
Adxamova Komilabonu Ilxom qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
IJTIMOIIY MUHIM OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLAR NARXLARINING KELGUSI TENDENSIYALARINI PROGNOZLASHNI EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH	489
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	
MARKETING VA LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA HUDUDLARDA AGROLOGISTIKA MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH.....	511
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
SANOAT KLASSTERLARINING SHAKLLARI VA KLASSTER SUBYEKTLARINING O‘ZARO KORPARATIV MUNOSABATLARI	522
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
DEHQON BOZORI SAVDOSINING XARIDORLAR TALAB-EHTIYOJINI QONDIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI.....	527
Ivatov Irisbek	
QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHISHINING INTENSIV RIVOJLANISHNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	535
Saburov Jumanazar Saliyevich	
CHAKANA SAVDO FAOLIYATIDA NEYROMARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI	542
Saminjonov Nurilloxon Abdubanno o‘g‘li	
SANOAT KLASSTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA	549
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
NEFT VA GAZ RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	555
Xalimov Akmaljon Axmadovich	
OLIY TA‘LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	561
Xusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li	
APPLE KOMPANIYASINING MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	567
Yaxyoxonov Niyozxo‘ja Baxroil o‘g‘li	

RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY TURIZMGA TA’SIRI	575
Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich	
TOSHKENT SHAHRIDA BOLALAR VA O’SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ASOSIY TAMOYILLAR.....	584
Islomova Dilrabo Salomovna	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA BILIM IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH UCHUN USLUBIY YORDAMNI SHAKLLANTIRISH	591
Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich	
OLIY TA’LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT KO’RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEZONLARI VA KO’RSATKICHLARI.....	602
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi,	
IHTTNING CRAM METODOLOGIYASI ASOSIDA TAHLIL (CHEXIYA TAJRIBASI).....	608
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA TEXNIK TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	615
Raximov Ilyos Muydinovich	
MILLIY MODANING GLOBAL MADANIY VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA UYG‘UNLIGIGA ASOSLANGAN STRATEGIK MARKETING YONDASHUVI.....	627
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
RESEARCH ON THE EFFECTS OF INTEREST RATE, INFLATION RATE AND GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) ON THE LEVEL OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI) INFLOWS (EVIDENCE FROM UZBEKISTAN)	637
Azimov Shakhzod	
OLIY TA’LIM MUASSASALARINING INNOVATSION TA’LIM LOYIHALARI ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	649
Eshov Mansur Po‘latovich	
ENHANCING RETAIL PERFORMANCE: THE ROLE OF ECO-MARKETING STRATEGIES IN ACHIEVING ECONOMIC EFFECTIVENESS.....	663
Zilola Davronova G‘ulomovna	

QASHQARYO VILOYATINING IQTISODIY O‘SISHINI TA’MINLASHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O‘ZLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI

Azimov Allaberdi O‘rinovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM “Iqtisod” kafedrası katta o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0002-2617-8731

Begaliyeva Madina Abdusamatovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM “Iqtisod” kafedrası o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0006-7195-0793

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish holati tahlil qilinib, erishilgan natijalar hamda mavjud muammolar yoritilgan. Investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida so‘nggi uch yilda 4 barobar va o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar o‘sishga erishilgani qayd etilgan. Shuningdek, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, mahalliy va xorijiy investorlar hamkorligini mustahkamlash bo‘yicha muhim takliflar ilgari surilgan. Ushbu hujjat viloyatda investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy o‘sish, infratuzilma, biznes rivojlanishi, mahalliy hamkorlik, investitsiya strategiyasi, huquqiy baza, investitsiya monitoringi.

Аннотация

В данной статье проанализировано текущее состояние освоения иностранных инвестиций в Кашкадарьинской области, освещены достигнутые результаты и существующие проблемы. Отмечено, что за последние три года объём инвестиций увеличился в 4 раза, а по сравнению с прошлым годом — в 2 раза. Также представлены предложения по улучшению инвестиционного климата, развитию инфраструктуры и укреплению сотрудничества между местными и иностранными инвесторами. Данный материал имеет важное значение для определения стратегических направлений повышения инвестиционной привлекательности региона.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, инвестиционный климат, привлечение инвестиций, экономический рост, инфраструктура, развитие бизнеса, местное сотрудничество, инвестиционная стратегия, правовая база, инвестиционный мониторинг.

Abstract

This article analyzes the current state of foreign investment assimilation in the Kashkadarya region, highlighting the achieved results and existing challenges. It is noted that over the past three years, investments have increased fourfold, and doubled compared to the previous year. The article also presents key proposals to improve the

investment climate, develop infrastructure, and strengthen cooperation between local and foreign investors. This document plays a vital role in shaping strategic directions for enhancing the region's investment attractiveness.

Keywords: foreign investment, investment climate, investment attraction, economic growth, infrastructure, business development, local cooperation, investment strategy, legal framework, investment monitoring.

KIRISH

Xorijiy investitsiyalar-chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag'batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ham moliyalashtirishning tashqi manbai bo'lmazligi mumkin. Bu birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taalluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma'lum vaqt o'tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talab etadi. Chetdan jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar bilan chet eldan kiritiladigan kreditlarning o'ziga xos farqlari mavjuddir. Bu borada xorijiy investitsiyalar risklar doirasi bilan chet el kreditlari risklari kengligi farqlanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi yig'ilishida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish holati tanqidiy tahlil qilinib, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishni jadallashtirish masalalari muhokama qilingan[1].

Adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, viloyatlarda joriy yilda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish holati bo'yicha quyidagi manbalar mavjud: 2023-yilda M.Ahmadova va D.Akabirxodjayeva "O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investorlarni jalb qilish va investitsiyalarni boshqarish usullari" mavzusidagi maqolada xalqaro investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va AQSh tajribasi tahlil qilinib, O'zbekistonga xorijiy investorlarni jalb qilish va investitsiyalarni boshqarish usullari o'rganilgan[2].

Bundan tashqari J.Erdanov va M.Mirzayevlarning "O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirish masalalari" mavzusidagi maqolada mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va korxonalar investitsiya faolligini oshirish yo'llari asoslab berilgan[3].

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari-chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari (2019) [4].

A.Sh.Bekmurodov (2012) fikricha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar-investorga korxonani nazorat qilish huquqini beruvchi kapitalni to'g'ridan-to'g'ri eksport qilish va shu bilan korxona asosiy bosh kompaniyasining xorijiy shuba korxonasiga aylanadi [5].

B.A.Vaxobov (2010) esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar-investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta'sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foizi ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir, deb ta'kidlaydi [6].

A.S.Azizov (2021) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo, xo'jalik faoliyati ustidan qisman yoki to'liq nazoratni ta'minlash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta'kidlaydi [7].

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqot metodologiyasining ushbu mavzu uchun eng maqbul deb topilgan usullari qo'llanilgan. Mazkur maqolani yozishda statistik kuzatuv, eksperimental va amaliy tahlil, taqdim etilgan investitsiya loyihalarini baholash, iqtisodiy hisobotlar va davlat statistikasi ma'lumotlarini qayta ishlangan va tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yilda viloyatda tarmoq korxonalari bilan birgalikda 2,7 mlrd. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirildi. Shundan, viloyatning ulushi 159 ta investitsiya loyihalarida 750 mln. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirildi (Reja 552 mln. dollar, Ijro 136%). (2023-yilda 377 mln. dollar o'zlashtirilgan, o'sish 2 barobar). O'zlashtirilgan investitsiyalar asosan, Xitoy (381 mln. doll.), Rossiya (173 mln. doll.), Turkiya (112 mln. doll.), Germaniya (61 mln. doll.), Singapur (57 mln. doll.) va boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keldi (1-jadval).

1-jadval

O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar 2024-yil hisobida¹

№	O'zlashtirilgan investitsiyalar	Miqdori (mln.AQSH dollari).	Jami kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar nisbatan ulushi (%)
1.	Xitoy	381,0	48,6
2.	Rossiya	173,0	22,1
3.	Turkiya	112,0	14,3
4.	Germaniya	61,0	7,8
5.	Singapur	57,0	7,3

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va ishga tushirilgan loyihalar doirasida 16 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratildi, 1465,0 mln.AQSH dollaridan ortiq byudjet tushumlari ta'minlanadi (2-jadval).

Investitsiya o'zlashtirilgan loyihalar Kasbi tumanida "Indorama agro" XK tomonidan qiymati 31,5 mln. dollarlik 1 ming gektar tomchilatib sug'orish va

¹ Viloyat investitsiya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

agrologistika tashkil etish loyihasida 29 mln. dollar o'zlashtirilgan ,natijada, ish o'zni 55 ta, 1,8 ming gektar maydonlarda suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi va lazerli tekislandi.

2-jadval

Joriy yildagi byudjet tushumlari va yaratilgan ish o'rinlari tahlili¹

№	O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar	Byudjet tushumlari (mln.AQSH dollari).	Ish o'rinlari yaratildi (ming dona)	Jamiga nisbatan byudjet tushumlari %
	Jami	1465,0	16000	
	Shundan:			
1	Kasbi tumanida "Indorama agro" XK	31,5	55	21,5
2	Kosonda "Bunyodkor" MChJ	50,0	150	34,1
3	Shahrisabz sh.da "Shahrisabz med sentr" MChJ	19,0	130	13,0
4	Qarshida "Qarshi agro klaster" MChJ	17,4	45,0	11,9
5	Kichik korxonalar va boshqalar	20,5	15620	13,7

Kosonda "Bunyodkor" MChJ tomonidan qiymati 50 mln. dollarlik matoni bo'yash va oqartirish loyihasida 19,5 mln. dollar o'zlashtirilgan (Niderlandiya, Turkiya, Italiya), ish o'zni 150 ta, yiliga 25 tonna buyoq, trikotaj va to'qimachilik matolariga gul bosish yo'lga qo'yildi. Shahrisabz shahrida "Shahrisabz med sentr" MChJ tomonidan qiymati 19 mln. dollarlik zamonaviy tibbiyot markazi tashkil etish loyihasida 16 mln. dollar o'zlashtirilgan, ish o'zni 130 ta, 260 o'rinli shifo maskani tashkil etildi.

Qarshida "Qarshi agro klaster" MChJ tomonidan qiymati 17,4 mln. dollarlik ip-kalava ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasida 15,4 mln. dollar o'zlashtirilgan, ish o'zni 45 ta, yillik quvvat 7 ming tonnani tashkil etadi.

Qarshi shahrida "Alp texno servis" XK tomonidan qiymati 11,2 mln. dollarlik televizor ishlab chiqarishni kengaytirish loyihasida 11,2 mln. dollar o'zlashtirilgan , ish o'zni 30 ta, yillik quvvat 1,2 ming dona va shu kabi boshqa loyihalar hisobiga xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyatida joriy yilda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish jarayoni tahlil qilinib, bir qator muhim xulosalar chiqarildi. Investitsiya jalb etish va ularni samarali o'zlashtirish bo'yicha olib borilgan ishlarga qaramay, hali to'liq foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Xususan, ba'zi loyihalar amalga oshirish jarayonida hujjatlashtirish, infratuzilma va mahalliy hamkorlik borasida qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shuningdek, investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash talab etiladi.

¹ Viloyat investitsiya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Qashqadaryo viloyatida joriy yilda xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishni oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat qaratilishi lozim:

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – xorijiy investorlar uchun imtiyoz va kafolatlarni oshirish, ruxsatnomalar olish jarayonini soddalashtirish.

Infratuzilmani rivojlantirish–sanoat hududlarida kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, logistika va transport tizimini modernizatsiya qilish.

Investitsiya muhitini oshirish–byurokratik to'siqlarni kamaytirish va investorlar uchun bir darcha tamoyili asosida xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish.

Mahalliy korxonalar bilan hamkorlikni rivojlantirish–xorijiy investitsiyalarni jalb etish bilan birga, mahalliy tadbirkorlar bilan hamkorlikda qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish.

Ishchi kuchini rivojlantirish–xorijiy investorlar uchun zarur bo'lgan malakali ishchi kuchini tayyorlash, ta'lim va kasb-hunar o'qitish dasturlarini kengaytirish.

Reklama va targ'ibot ishlarini kuchaytirish–viloyatning investitsiyaviy jozibadorligini xalqaro darajada targ'ib qilish, yirik biznes forumlar va ko'rgazmalar tashkil etish.

Monitoring tizimini joriy etish–xorijiy investitsiyalar o'zlashtirish jarayonini doimiy nazorat qilib borish, muammolarni tezkorlik bilan hal qilish tizimini yo'lga qo'yish.

Ushbu takliflar amalga oshirilsa, viloyatda xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada ortadi, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanadi va yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

So'nggi natijalar: Investitsiyalarni jalb qilishda so'nggi uch yilga nisbatan 4 barobar va o'tgan yilga nisbatan 2 barobar o'sishga erishildi. Bu viloyatning investitsiyaviy jozibadorligi oshib borayotganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi yig'ilishidagi nutqi <https://www.gazeta.uz/oz/2019/03/21/investitsiya-tanqid/>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabr PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/4567334>

3. Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha yangi tizim joriy qilinadi. Gazeta.uz 11.07.2023yil.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvar PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

5. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabr O'RQ-598-son «Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonuni, 3-modda. <https://lex.uz/docs/-4664142>

6. A.Sh.Bekmurodov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012 – T. – O'quv qo'llanma.

7. A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O‘quv qo‘llanma.
8. A.S.Azizov. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy-iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.
9. Begaliyeva, M. (2024). Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya. Modern Science and Research, 3(12), 321-324.
10. Begaliyeva, M. A. (2025). E-biznesni rivojlanish strategiyasi. Golden brain, 3(4), 79-83.
11. A.O. Azimov. 2024. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari. – Ekonomika i sosium, 88-92.
12. A.O. Azimov. 2024. Suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishning hosildorlikni oshirishdagi o‘rni va ahamiyati. – Ekonomika i sosium, 502-508,
13. A.O. Azimov, M. A. Begaliyeva 2025-yil Viloyatda chorvachilik mahsulotlarini o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi, № 3-son, 283-288.
14. interonconf.org+1Взгляд.uz+1.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**